

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

1-maxsus
son (6-jild)

2026

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/1 (6) – 2026

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Алимджанов Бахтиёр Абдихакимович</i> «НА ЭТОМ СЪЕЗДЕ ИДЕЙНОМУ РАЗБРОДУ НУЖНО ПОЛОЖИТЬ КОНЕЦ», ИЛИ КАК СОЮЗ АРХИТЕКТОРОВ УЗБЕКИСТАНА НАЧАЛ МЫСЛИТЬ	11-17
<i>Esanova Nilufar</i> O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA O'RTASIDA OG'IR SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	18-21
<i>Muminov Azizbek Ziyoviddinovich</i> JIZZAX VILOYATI JOYLASHGAN TABIIY OBYEKT LARNING TARIXIY-GEOGRAFIK TASNIFI VA TURISTIK SALOHİYATI	22-27
<i>Ne'matov Xumoyun To'liqin o'g'li</i> SHOHRUX MIRZO VA USMONIYLAR O'RTASIDAGI DIPLOMATIK ALOQALAR TARIXI	28-33
<i>Khudoyorov Noyibjon Maripjonovich, Ruziboev Samandarbek Sobirjon o'g'li</i> THE POLICY OF DEKULAKIZATION AND CONFISCATION OF PEASANT HOUSEHOLDS IN KAZAKHSTAN, 1929–1933.....	34-43
<i>Шамшетдинова Дилафруза Исмайыловна</i> ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС И ТРАНСФОРМАЦИЯ КУЛИНАРНЫХ ТРАДИЦИЙ В СЕЛЬСКОЙ МЕСТНОСТИ КАРАКАЛПАКСТАНА (1960-1980 ГГ.).....	44-48

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kasimova Gulyar Axmatovna, Xaydarova Durdona Shuxratjon qizi</i> DAVLAT TIBBIY SUG'URTASI MEXANIZMIDA DORI-DARMON XARIDLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	49-56
<i>Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li</i> AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINI RIVOJLANTIRISHNING KO'P OMILLI EKONOMETRIK MODEL: OLS VA ARDL TAQQOSLASH	57-64

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Tashanov Abduxoliq</i> BUZG'UNCHI G'OYALARINING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA AXLOQIY MUAMMOLARI	65-71
<i>Jo'rayev Ahmad Muhammadiyevich</i> TASAVVUF TA'LIMOTIDA DINIY BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO TOTUVLIK MASALALARI	72-78
<i>Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna</i> TASAVVUFNING FALSAFIY JIHATLARI XUSUSIDA.....	79-84
<i>Ibraximova Dilorom Saloydinovna</i> RAQAMLI MUHITDA ESTETIK IDROKNING XUSUSIYATLARI.....	85-88
<i>Muxammadiyeva Oliy Narzullayevna</i> OILA INSTITUTINI MUSTAHKAMLASH KONSEPSIYASI - OILA VA JAMIYAT IJTIMOIY BARQARORLIGINING MEZONI.....	89-92

<i>Matchanova Barno</i>	
MAFKURA VA MILLIY MAFKURA TUSHUNCHALARI:	
MAZMUN-MOHİYATI VA IJTIMOİY FUNKSIYALARI.....	93-98
<i>Uraqov Nodirbek Boboqulovich</i>	
BAG'RIKENGLIK G'OYASINING TASAVVUFİY-FALSAFIY TAHLILI	
(Maxdumi A'zamning "Risolai tanbeh ul-ulamo" asari asosida).....	99-104
<i>Raxmatov Alisher Obidovich</i>	
IJTIMOİY FALSAFADA INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	105-108
<i>O'sarkulov Oybek Murodilovich</i>	
MILLIY IDENTIKLIKNING TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOİY INTEGRATSIYA:	
O'ZBEKISTONDAGI KOREYS DIASPORASI TAJRIBASI.....	109-115
<i>Fayziyev Xurshid Jumayevich</i>	
VOLTERNING "BAG'RIKENGLIK HAQIDA" ASARIDA JAN KALASNING QATL	
ETILISHI VA UNING OQIBATLARINI AKS ETTIRILISHI	116-121
<i>Shadmonova Zebiniso Amrulloevna</i>	
OILA SHAXS KAMOLOTINING ASOSIY IJTIMOİY MUHITI VA JAMIYAT	
BARQARORLIGINING OMILI SIFATIDA.....	122-126
<i>Idiboyev Abror Jamolovich</i>	
JAMIYAT IJTIMOİY-MA'NAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA - YOSHLAR	
HUQUQIY TARBIYASINING O'RNI	127-130
<i>Ahmadjonov To'liqinbek Akramjon o'g'li</i>	
RAQAMLI OLAMNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI.....	131-136
<i>Sodiqov Islombek Otabek o'g'li</i>	
RAQAMLI MADANIYAT TUSHUNCHASI VA UNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI	137-141
<i>Abdurahimov Ravshanbek O'ktam o'g'li</i>	
HUQUQIY DEMOKRATIK JAMIYAT QURISH SHAROITIDA YOSHLAR HUQUQIY	
ONGINING SHAKLLANISH OMILLARI	142-146
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Duvlaeva Nozigul Xolmuxammat qizi</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK MATNLARIDA STILISTIK TASVIR VOSITALARI	147-151
<i>Зикруллаева Хусния Бахтияровна</i>	
СТРУКТУРА, ПРОИСХОЖДЕНИЕ И НОРМАТИВНЫЕ ОСОБЕННОСТИ	
ЗАИМСТВОВАННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ	
НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКОМ ТЕКСТЕ.....	152-156
<i>Turdiyeva Dilorom Soliyevna</i>	
PEDAGOGICAL STRATEGIES FOR INCLUSIVE LEARNING	157-162
<i>Eshmuratov Umidjon Temurovich</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI AFORIZMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI	163-167
<i>Avlayeva Saida Bozorovna</i>	
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA COVID-19 PANDEMIYASI SHAROITIDA	
SHAKLLANGAN KISHILAR JAMOALARINI IFODALOVCHI NEOLOGIZMLAR.....	168-172
<i>Ubaydullaeva Dilfuza Akmal qizi</i>	
JURNALISTLARNI TAYYORLASHDA NUTQ MADANIYATI KOMPETENSIYALARINING	
STRUKTURASI	173-181

<i>Alimova Shaxnoza Yaxshiboyevna</i> ASSOTSIIATIV TAJRIBA PSIXOLINGVISTIKA USULI SIFATIDA	182-187
<i>Xudayberganov Nizomaddin Uktambay o'g'li, Mansurova Shaxinabonu Najmiddin qizi</i> O'ZBEK TILIDA SON VA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI POS TEGGLASH ASOSIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TAMOIYILLARI	188-193
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Абдуллаева Дильдора Эльмуродовна</i> ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В СТАРТАП ПРОЕКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН НА ПРИМЕРЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКСЕЛЕРАТОРОВ И ИНКУБАТОРОВ.....	194-198
<i>Fayzullayeva Shaxlo Jumanioz qizi</i> THEORETICAL AND LEGAL ASPECTS OF INCLUSION OF COPYRIGHT OBJECTS IN INTERNATIONAL TRADE.....	199-204
<i>Qalandarov Aminjon Amondullayevich</i> KORPORATSIYALARDA AFFILLANGAN SHAXSLAR INSTITUTINING HUQUQIY TABIATI VA TARTIBGA SOLINISHI	205-212
<i>Uralov Sarbon Sardorovich</i> JINOYAT-PROTSESSUAL QONUNCHILIKDA VIDEOKONFERENSALOQA ORQALI TERGOV HARAKATLARINI TARTIBGA SOLISHNING UMUMIY SHARTLARI	213-218
<i>Xolmirzayev Muhsin Shavqiddin o'g'li</i> KRIMINOLOGIK PROGNOZLASHDA ANIQ FANLAR VA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARI YUTUQLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	219-225
<i>Dilboboyev Nozimbek</i> XORIJIY (CHET EL) VA MAHALLIY (MILLIY) INVESTITSIYA TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY TAVSIFI, ULARNING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI.....	226-232
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI	233-240
<i>Asadov Shahridin Faxriddin o'g'li</i> FUQAROLIK HUQUQIDA XIZMATLARNING HUQUQIY TABIATI: KONSALTING XIZMATLARI MISOLIDA.....	241-243
<i>Абдужампоров Шахбоз Музаффар ўғли</i> НЕСАНКЦИОНИРОВАННЫЙ ДОСТУП И ХИЩЕНИЕ ДЕНЕЖНЫХ СРЕДСТВ С ПЛАСТИКОВЫХ КАРТ: УГРОЗЫ, МОДЕЛИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ И КОМПЛЕКСНЫЕ МЕРЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ.....	244-253
<i>Хасанов Турсунпулат Шавкатжон ўғли</i> МЕЖДУ АЛГОРИТМОМ И ЗАКОНОМ: ПРОБЛЕМА ПРАВОВОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	254-259
<i>Kadirova Moxigul Xamitovna</i> ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVI VA ADOLATLI SUD-HUQUQ TIZIMI	260-262
<i>Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna</i> UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI (O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida).....	263-269

<i>Shagilov Pulatbek Koptleuovich</i> JAMOAT XAVFSIZLIGIGA TAJOVUZ QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARINING TAJRIBASI TAXLILI	270-276
<i>Kubaeva Ismigul Farkhod qizi</i> PARTY AUTONOMY VS CONSUMER PROTECTION IN INTERNATIONAL E-COMMERCE: THE CASE OF UZBEKISTAN IN COMPARATIVE PERSPECTIVE	277-283
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> ПОНУЖДЕНИЕ ЛИЦА К ВСТУПЛЕНИЮ В ПОЛОВУЮ СВЯЗЬ: ПРАВОВАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОБЪЕКТИВНОЙ СТОРОНЫ ПРЕСТУПЛЕНИЯ.....	284-295
<i>Toshpo'latov Islom Otavulla o'g'li</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KADRLAR BILAN ISHLASH SIYOSATIDA MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR VA UNI ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIGA TA'SIRI	296-301
<i>Аллашова Шийринай Турсынбаевна, Каримова Мадина Мирзаджоновна</i> ВИКТИМНОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЖЕРТВ БЫТОВОЙ ПРЕСТУПНОСТИ И ЕГО ПРОФИЛАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ	302-307
<i>Lutfullayeva Feruza Boboqulovna</i> HUQUQIY DAVLAT KONSEPSIYASINING ZAMONAVIY NAZARIY YONDASHUVLARI	308-312
<i>Abdugaffarov Davronbek Dilshod o'g'li</i> SHARTNOMALARNI AMALGA OSHIRISH USTIDAN SAMARALI PARLAMENT NAZORATI: O'ZBEKISTONDA XALQARO TIJORAT SHARTNOMALARIDA TARAFLARNING ERK MUXTORIYATINI KUCHAYTIRISH.....	313-317
<i>Jalilov Ravshanjon Abdukayumovich</i> INSON A'ZOLARI VA TO'QIMALARINING NOQONUNIY AYLANMASI: JINOIY-HUQUQIY VA QIYOSIY TAHLIL	318-329
<i>Muxtorov Muhammad Amin Mirkomil o'g'li</i> MULK HUQUQINI MUHOFAZA QILISH ICHKI ISHLAR ORGANLARINING FAOLIYATI.....	330-337
<i>Karimov Ulugbek Hakimjonovich</i> LEGAL FOUNDATIONS OF PROSECUTORIAL SUPERVISION IN ENSURING THE ALLOCATION, USE, AND PROTECTION OF LAND PLOTS IN THE AGRARIAN SECTOR OF UZBEKISTAN	338-343
<i>Mirabdullayev Maqsudjon Mahmudjon o'g'li</i> MASHINALI O'QITISH USULLARI ASOSIDA XOSTNING XAVFSIZLIGINI BAHOLASH, MODEL VA ALGORITMLARINI ISHLAB CHIQISH.....	344-349
<i>Utebaev Salamat Maqsetbay o'g'li, Dauletbayeva Aynur Baxramovna</i> OILAGA QARSHI JINOYATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING OLDINI OLISH.....	350-354
<i>Tillayev Ikrom Rustamjonovich</i> HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASINI BELGILAB BERUVCHI UMUMIY VA SOHAVIY-HUQUQIY HUJJATLAR TAHLILI	355-362
<i>Xoshimova Nilufar Zafarjon qizi</i> O'ZBEKISTONDA MEHNAT MUNOSABATLARIDA MIGRATSIYA MUNOSABATLARI.....	363-366

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Rahmonova Nilufar Najmiddin qizi BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI FORSAYT TADQIQOT METODLARI ASOSIDA KREATIV KOMPETENSIYALARI TA'LIM TRAYEKTORIYASINI TASHKIL ETISH	367-371
<i>Abdurasulova Dilrabo Tolkunjon qizi</i> KOMPARATIVISTIKISTIK YONDASHUV TALABALARNING MADANIYATLARARO KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSI SIFATIDA.....	372-380
<i>Таджиходжаева Эльвира Рашидовна</i> ЦИФРОВАЯ ГРАМОТНОСТЬ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ КАТЕГОРИЯ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НЕПРОФИЛЬНЫХ СПЕЦИАЛЬНОСТЕЙ.....	381-387
<i>Ravshanova Gulnoza Burxonovna</i> 5-SINF O'QUVCHILARINING ANTROPOMETRIK TOTAL KO'RSATKICHLARINI O'RGANISH BO'YICHA TADQIQOT BOSHIDA OLINGAN NATIJALAR TAHLILI.....	388-393
<i>Mirzaakhmedova Makhliyo Yuldashevna</i> THE IMPACT OF AUTHENTIC MATERIALS ON TEACHING BUSINESS WRITING SKILLS TO ESP STUDENTS	394-400

Received: 03 January 2026

Accepted: 17 January 2026

Published: 30 January 2026

Article / Original Paper

THE MORAL AND LEGAL ESSENCE OF THE IDEA OF PATRIOTISM IN THE CONDITIONS OF THE THIRD RENAISSANCE

(In comparison with the experience of Uzbekistan and foreign approaches)

Mukhitdinova Firyuza Abdurashidovna

Professor, Doctor of Legal Sciences,

Department of state and law theory,

Tashkent State Law University

E-mail: feruza.mukhitdinova@gmail.com

<http://www.orcid.org/0000-0003-1721-0189>

Abstract. The article examines the spiritual and legal foundations of the Third Renaissance concept in Uzbekistan and reveals the social, moral, and legal essence of patriotism. Patriotism is analyzed as a key factor in strengthening national statehood, developing civil society, and educating a harmoniously developed generation. The paper also provides a comparative analysis of patriotic education policies in Uzbekistan and the United States, highlighting the balance between national and universal values in the context of globalization.

Keywords: Third Renaissance, New Uzbekistan, patriotism, spiritual values, state policy, youth education, comparative analysis.

UCHINCHI RENESSANS SHAROITIDA VATANPARVARLIK G'OYASINING MA'NAVIY-HUQUQIY MOHIYATI

(O'zbekiston tajribasi va xorijiy yondashuvlar qiyosida)

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

Professor, yuridik fanlar doktori,

Toshkent davlat yuridik universiteti davlat va huquq nazariyasi kafedrası

Annotatsiya. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans g'oyasining ma'naviy-huquqiy asoslari tahlil qilinib, vatanparvarlik tushunchasining ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy mohiyati ochib berilgan. Muallif vatanparvarlikni milliy davlatchilikni mustahkamlash, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish hamda yosh avlodni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning muhim omili sifatida asoslaydi. Shuningdek, maqolada O'zbekistondagi vatanparvarlik strategiyasi AQSH tajribasi bilan qiyosiy tahlil qilinib, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Uchinchi Renessans, Yangi O'zbekiston, vatanparvarlik, ma'naviy qadriyatlar, davlat siyosati, yoshlar tarbiyasi, qiyosiy tahlil.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V6SI1Y2026N43>

Dolzarbli. Globallashuv, mafkuraviy tahdidlar va axborot makonining ochiqlashuvi sharoitida yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish davlat xavfsizligi va milliy barqarorlikning muhim shartiga aylanmoqda. O'zbekistonda Uchinchi Renessans g'oyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar faqat iqtisodiy yoki siyosiy emas, balki chuqur ma'naviy-huquqiy mazmun kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, vatanparvarlikni nazariy jihatdan qayta anglash va uning zamonaviy modellarini qiyosiy tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa

hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar yoshlardagi vatanparvarlik va milliy g'urur tuyg'usini yangi bosqichga ko'tarishni Uchinchi Renessansning obyektiv ehtiyojiga aylandi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yoshlarda vatanparvarlik tarbiyasi, milliy ruhni yuksaltirish hamon dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Uchinchi Renessans rivojida yoshlarning zamon talablari darajasida ta'lim-tarbiya olishi, vatanparvar bo'lishi, shu aziz vatanga daxldorlik hissini kuchaytirishi, salomatligini mustahkamlashi, o'z kuchi, bilim va salohiyatini yuqori, dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridandir.

Vatanparvarlik tushunchasining ma'naviy-huquqiy mohiyati

Vatanparvarlik — shaxsning Vatanga nisbatan sadoqati, uning mustaqilligi, hududiy yaxlitligi va konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilishga qaratilgan ijtimoiy-ma'naviy fazilatdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson, jamiyat va davlat manfaatlari uyg'unligi vatanparvarlikning huquqiy asosini tashkil etadi. Uchinchi Renessans g'oyasi esa mazkur fazilatni milliy taraqqiyotning strategik omili sifatida ilgari suradi. Vatanparvarlik (yunoncha *patris* — vatan) insonning tug'ilib o'sgan yurtiga muhabbati, xalq va davlat taqdiri uchun mas'uliyat hissi hamda amaliy faoliyatida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-ma'naviy qadriyatdir. U Vatan mustaqilligi, hududiy yaxlitlik, xalq farovonligi va milliy manfaatlarni himoya qilish yo'lida fidoyilik ko'rsatishni ifoda etadi.

Tarixga nazar solsak, Buyuk Ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat markazlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy va madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar va turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik ildizlaridan dalolat beradi. Buyuk davlat arboblari va sarkardalarning xalq tinchligini asrash yo'lidagi faoliyatlari orqali bu jarayonni anglash mumkin. Ular o'z muvaffaqiyatlarini ko'p jihatdan fidoyi va vatanparvar shaxslarni tarbiyalash bilan bog'liq deb hisoblashgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, umuminsoniy qadriyatlar qatorida kattalarga hurmat, jamiyat, xalq urf-odatlarini va oilaga muhabbat hamda eng asosiysi — Vatanga sadoqat kabi fazilatlar ajralib turadi.

Qadimgi davrlarda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi dastavval urug'lar va qabilalar orasida namoyon bo'lgan. Jumladan, ota-bobolarining ruhlariga yoki totemlarga, qabilaning ajdodlariga sig'inish orqali g'ayritabiiy kuchlar berilganiga ishonilgan. Bu jarayon yosh avlodda o'z xalqi bilan faxrlanish tuyg'usini rivojlantirib, mansublik hissini mustahkamlagan.

Qadimgi Yunonistonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ko'proq davlat manfaatlari bilan bog'liq holat sifatida qaralgan. Kichik quldorlik davlatlari fuqarolaridan yig'ilgan askarlar mamlakat tashqarisida xizmat qiladi va shaxsiy manfaatlar haqida o'ylay olmas edi. Yunon davlat arbobi va sarkardasi Periklning qarashlariga ko'ra, vatan himoyachilari yuqori fuqarolik ongi va ma'naviy madaniyatiga ega axloqiy shaxslar bo'lib, o'z manfaatlarini davlat manfaatlari bilan uyg'unlashtirgan to'laqonli fuqaroni ifodalashgan.

Faylasuf Suqrot insonning o'zgarmas va umumiy axloqiy sifatlari orasida Vatanga muhabbat tuyg'usini qo'shgan. Uning fikricha, tarbiya natijasi axloqli, mustaqil va jamoat burchiga muvofiq harakat qila oladigan inson bo'lishi lozim edi. Shu munosabat bilan, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi odamni nafaqat fuqarolik burchiga, balki umuminsoniy axloqiy me'yorlarga ham sodiq qilib tarbiyalaydi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi din bilan ham bog'langan holda jamiyat a'zolariga singdirilgan. Diniy marosimlar orqali urug' va qabila a'zolari ulug'langan, jamoa a'zolarida

madaniy va ma'naviy birlik hissi rivojlangan. Bu jarayon yoshlarni o'z xalqini himoya qilish va uning farovonligini ta'minlashga undaydigan muhim omilga aylangan.

Davlatchilik rivojlanishi tarixida harbiy-vatanparvarlik faoliyatning kuchli va ta'sirli vositasi bo'lib xizmat qilgan. Bu tarbiya xalqning o'z mamlakati va yutuqlari bilan faxrlanishini mustahkamlaydi, davlatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, madaniy va san'at meroslari harbiy-vatanparvarlik tuyg'ularini targ'ib qilish va rag'batlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etgan va hozirga qadar bu vazifani davom ettirmoqda. Antik davrda Yunonistonda yongan ilm mash'alasi Markaziy Osiyoda IX—XII asrlarda qayta porladi. Shu davrda yurtimiz hududida birinchi Renessans yuzaga kelib, dunyoga mashhur daholarni yetkazib berdi. Xususan, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk allomalarning ilmiy va ijodiy kashfiyotlari umumbashariyat taraqqiyotiga beqiyos ta'sir ko'rsatdi.

"Islom madaniyatining oltin asri" deb e'tirof etilgan davrda ona zaminimizdan yetishib chiqqan Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy va Abul Mu'in Nasafiy kabi ulug' ulamolar butun musulmon olamining faxr-u iftixori hisoblanadi.

XV asrda Sohibqiron Amir Temur bobomiz asos solgan va uning munosib avlodlari davom ettirgan muhtasham saltanat yurtimizda ikkinchi Renessans, ya'ni ikkinchi ilmiy-ma'rifiy va madaniy yuksalish davrini boshlab berdi. Shu davrda Qozizoda Rumiy, Mirzo Ulug'bek, G'iyosiddin Koshiy, Ali Qushchi kabi olimlar hamda Lutfiy, Sakkokiy, Hofiz Xorazmiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi shoir va mutafakkirlar maydonga chiqdi. Shu bilan birga, Sharafiddin Ali Yazdiy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar, Kamoliddin Behzod kabi musavvirlar, ko'plab xattot va sozandalar, musiqashunoslar va me'morlar dunyoga mashhur bo'ldi.

Donishmand xalqimiz har ikki Renessans davrida jahonning eng ilg'or va taraqqiy etgan xalqlari qatorida bo'lgani barchamizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Ajdodlarimiz bu yuksak cho'qqilarga erishishda jaholatga qarshi ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib, aql-zakovati va salohiyatini bashariyat yaratgan ilm-fan yutuqlarini chuqur o'rganish va boyitishga bag'ishlaganlar. Mamlakat va millatning taraqqiyoti, shon-shuhrati hamda obro'-e'tibori, asosan, uning fuqarolaridagi vatanparvarlik tuyg'usining darajasi bilan bog'liqdir. Otabobolarimiz va avlod-ajdodlarimiz uchun Vatanga, eliga muhabbat hamisha muqaddas tuyg'u bo'lgan. Ular Vatan va xalq manfaatini, milliy qadr-qimmat va or-nomusni barcha narsadan ustun qo'ygan, kerak bo'lganda esa bu qadriyatlar yo'lida o'z jonlarini, hayotlarini qurbon qilishni sharaf deb bilishgan.

Agar har bir odam o'z tug'ilgan qishloq yoki shaharinigina Vatan deb tushunsa, bu mahalliylik kayfiyatini kuchaytiradi. Bu esa kishilarni muayyan hududda yashayotgan ijtimoiy-etnik birlik sifatida uyushishiga va butun mamlakat hamda millat manfaatlarini birlashtirib himoya qilishga to'sqinlik qiladi. Yaxlit va yagona Vatanni tan olmaslik — bu milliy parokandalik va Vatan tanazzulining og'ir belgisi hisoblanadi.

Vatanparvarlik tarixiy nuqtai nazardan — millat shakllanishi, davlatchilik asoslarining yaratilishi, ajdodlarimiz Vatan ozodligi yo'lidagi kurashlari hamda umumiy tarix va madaniyatga egalik tuyg'usidan kelib chiqadi.

Milliy g'urur sifatida ajdodlarimizning buyuk davlatlar barpo etishi, ilm-fan va madaniyat rivojiga qo'shgan hissi bugungi avlodga Vatanga muhabbat va faxr tuyg'usini shakllantiradi.

Mustaqillik uchun kurashga nazar tashlansa, turli bosqinchilik davrlarida Vatan ozodligi yo'lida jon fido qilgan qahramonlar xotirlanishi, ularning jasorati yoshlar uchun o'rnak bo'ladi. Umumiy tarix va madaniyat yo'nalishida qadimgi savdo yo'llari, islom madaniyati markazlari va buyuk allomalarning Vatan ravnaqiga qo'shgan hissasi umumiy tarixiy ongni mustahkamlaydi.

Huquqiy jihatdan Vatanparvarlik — mamlakat qonunchiligi asosida fuqarolik burchini ado etish, Konstitutsiya va qonunlarga hurmat qilish, Vatan mustaqilligini himoya qilish va Vatanga sadoqat kabilar orqali namoyon bo'ladi. O'zbekistonda bu tamoyillar davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan va maxsus tarbiyaviy dasturlar orqali yosh avlodga yetkaziladi.

Huquqiy jihatdan, Vatanparvarlik quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Konstitutsiyaviy burch: Vatan mustaqilligi va hududiy yaxlitligini himoya qilish, fuqarolarning davlat qurilishi va uning institutlariga sodiqligi.
- Qonunlarga rioya: Har bir shaxs qonun ustuvorligini ta'minlash va jamiyatda qonuniylikni saqlash orqali vatanparvarlik faoliyatini amalga oshiradi.
- Davlat siyosatlar va tarbiyaviy dasturlar: Masalan, "Vatan tayanchi" harakati yosh avlodni Vatanga sodiqlik, qonunlarga hurmat va ijtimoiy faollik ruhida tarbiyalashni maqsad qiladi.

Uchinchi Renessans va yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirish

Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, intellektual salohiyatli, mustaqil fikrlaydigan va Vatan taqdiriga daxldor avlodni tarbiyalash — davr talabidir. Bu jarayonda ta'lim tizimi, madaniy meros, tarixiy xotira va davlat ramzlari muhim o'rin tutadi. Vatanparvarlikni faqat hissiy tuyg'u emas, balki fuqarolik mas'uliyati sifatida shakllantirish Uchinchi Renessansning asosiy vazifalaridan biridir. Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansning rivojlanishi milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashgan vatanparvarlikni talab qiladi. Shu bois, yoshlarimizni Vatan tuyg'usini yagona, yaxlit holda — dunyodagi o'zbek millati va o'zbek xalqi farzandi sifatida his etishlari uchun tarbiyalash zarur. Vatanga va uning istiqboliga bo'lgan munosabatning ma'naviy darajasi inson faoliyatiga maqsad va yo'nalish beradi; ana shu holat — haqiqiy vatanparvarlikdir. Vatanparvarlikning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida o'z ifodasini topgan. Masalan, har bir fuqaroning Vatanni himoya qilish burchi Konstitutsiyada aniq belgilangan bo'lib, u fuqarolarning milliy manfaatlar va milliy xavfsizlikka sodiqlik asosida harakat qilishini talab qiladi. Shuningdek, qonunlar orqali Vatanparvarlik qonuniylik, adolat va fuqarolik burchlarini bajarish bilan bog'liqligi ta'kidlanadi.

Shu tariqa, Vatanparvarlik faqat ma'naviy qadriyatlar va tarixiy ong bilan cheklanib qolmay, balki qonuniy mexanizmlar va davlat siyosati orqali ham rag'batlantiriladi va amalda ta'minlanadi.

Vatanparvarlik faqat ijtimoiy-etnik guruhga mansub kishilarning o'z tarixini, tili, madaniyati, urf-odatlarini, milliy obro' va qadr-qimmatini bilish va hurmat qilishini, shu bilan birga boshqa xalqlarning ham obro'-e'tibori va manfaatlarini hurmat qila olishini ifodalaydigan ma'naviy mezon hisoblanadi.

Shuningdek, vatanparvarlik Vatanni ulug'lash, uning qadr-qimmatini himoya qilish, har bir qarich yeri va mustaqilligini asrash qobiliyati bilan namoyon bo'ladi. Vatanparvarlik, ayniqsa, Vatan taqdiri va taraqqiyotining eng mas'uliyatli davrlarida ochiq ko'zga tashlanadi va insonning fuqarolik va ma'naviy burchini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalqning boy tarixiy merosi, ajdodlar

qoldirgan ma'naviy qadriyatlar muhim tarbiyaviy manba hisoblanadi. Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi tarixiy shaxslar faoliyati yoshlarda jasorat, fidoyilik va Vatan taqdiriga daxldorlik hissini shakllantiradi. "Xalq va armiya — bir tan-u, bir jondir" g'oyasining ahamiyati shundaki, mazkur tamoyil armiyani jamiyatdan ajralgan institut emas, balki xalq bilan mushtarak manfaatlarga ega ijtimoiy tuzilma sifatida namoyon etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash orqali fuqarolik mas'uliyati, qonunga hurmat va milliy birlik mustahkamlanadi.

Vatanparvarlik har bir mamlakatda turlicha shakllanadi va uning kuchli yoki zaif bo'lishi ko'p jihatdan tarixiy, siyosiy, madaniy va huquqiy asoslarga bog'liq.

Qudratli davlatlar, odatda, vatanparvarlik darajasi yuqori bo'ladi, chunki bu davlatda davlat instituti va qonunlar barqaror va ishonchli bo'lib, fuqarolar uchun ijtimoiy va iqtisodiy kafolatlar mavjud. Milliy qadriyatlari va tarixiy xotira yaxshi saqlangan bo'ladi. Tarixiy joylar, manbalar davlat tomonidan nazoratda va himoyada, huquqiy jihatdan asrab avaylanadi. Misollar: AQSH: Vatanparvarlik konstitutsiya, huquq va demokratik qadriyatlarga bog'liq. Qonunlar va davlat institutlariga sadoqat tuyg'usi har bir fuqaroning hayotida namoyon bo'ladi. Harbiy xizmat ham konstitutsiyaviy burch sifatida qabul qilinadi. Shu bois, AQSHda vatanparvarlik kuchli va umumiy fuqarolik ongida integral qadriyat sifatida shakllangan. Yaponiya va Germaniya: Milliy tarix, ma'naviy qadriyatlar va davlat tarbiyasi orqali vatanparvarlik tarbiyalanadi, ayniqsa ikkinchi jahon urushi tajribasi davlat va xalq uchun asosiy saboq bo'ldi. O'zbekistonda vatanparvarlik tarixiy xotira, milliy madaniy meros va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un ravishda rivojlanadi. Milliy qahramonlar va tarixiy shaxslarning faoliyati yoshlar ongida milliy g'urur va fidoyilik hissini shakllantiradi. Islohotlar va modernizatsiya jarayoni milliy identiklikni saqlab qolishga qaratilgan. Harbiy-vatanparvarlik va ijtimoiy mas'uliyat ham tarixiy xotira bilan uyg'unlashgan. Nega AQSH va O'zbekiston modellari kuchli deyilsa? AQSHda: Konstitutsiyaviy qadriyatlar, demokratiya va qonun ustuvorligi bilan asoslanadi. Fuqarolik mas'uliyati va davlat institutiga sadoqat patriotizmni kuchli qiladi. O'zbekistonda: Milliy tarix, madaniy meros, qadriyat va ma'naviy ta'lim asosida shakllanadi. Yoshlar tarbiyasida tarixiy xotira va milliy o'zlik ustuvor ahamiyatga ega. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki modelda ham vatanparvarlik davlat barqarorligi, fuqarolarning faolligi va jamiyatning ijtimoiy birligi uchun muhim omil hisoblanadi, ammo AQSHda konstitutsiyaviy va demokratiyaviy asos, O'zbekistonda milliy va ma'naviy meros asosi o'ziga xos xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi.

Qiyosiy tahlil: O'zbekiston va AQSH tajribasi

AQSHda vatanparvarlik etnik emas, balki konstitutsiyaviy qadriyatlarga sodiqlik asosida shakllanadi. O'zbekistonda esa vatanparvarlik milliy tarix, madaniy meros va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki modelda ham vatanparvarlik davlat barqarorligi va fuqarolik faolligining muhim omili hisoblanadi, biroq O'zbekiston modelida tarixiy xotira va milliy o'zlikni saqlashga ustuvor ahamiyat beriladi. Qiyosiy va ta'limiy nuqtai nazardan, vatanparvarlik tushunchasi turli davlatlarda turlicha shakllanadi. Masalan, AQSHda vatanparvarlik asosan konstitutsiyaviy qadriyatlarga sodiqlik asosida namoyon bo'ladi. AQSH fuqarolari uchun Vatan — bu huquqlar va erkinliklar kafolatlangan konstitutsiya, qonun ustuvorligi, demokratik institutlar va umumiy fuqarolik mas'uliyati bilan ifodalanadi. Misol uchun, AQSHda maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida fuqarolik tarbiyasi asosan Konstitutsiya, AQSH tarixiy inqiloblari va inson huquqlariga rioya

qilish asosida olib boriladi [1]. Shuningdek, harbiy xizmat va vatan himoyasi ham konstitutsiya va qonunlarga sodiqlikda asoslanadi, etnik yoki milliy mansubiyatga qaramay fuqarolik burchi sifatida ko'riladi.

O'zbekistonda esa vatanparvarlik milliy tarix, madaniy meros va ma'naviy qadriyatlar bilan uyg'un holda rivojlanadi. Yoshlar tarbiyasida milliy o'zlik, tarixiy xotira, ajdodlar va madaniy merosga ehtirom asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan. Masalan, maktablarda va oliy ta'lim muassasalarida yoshlar Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi va boshqa tarixiy shaxslarning fidoyiligi, ma'naviy merosi orqali vatanparvarlik ruhida tarbiyalanadi [2]. Shuningdek, O'zbekistonda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi milliy qahramonlar hayoti va tarixiy xotira bilan bog'liq holda olib boriladi, bu esa fuqarolik va milliy identiklikni birgalikda shakllantiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, har ikki modelda ham vatanparvarlik davlat barqarorligi va fuqarolik faolligining muhim omili hisoblanadi, biroq usul va asosiy yo'nalishlarda farq bor. AQSHda vatanparvarlik konstitutsiyaviy, demokratik va qonuniy asoslar bilan bog'lansa, O'zbekistonda uning asosi tarixiy xotira, milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga sodiqlikda yotadi. Bu farq O'zbekiston modelini tarixiy va ma'naviy merosni saqlash va rivojlantirishga ustuvor ahamiyat beruvchi tarzda namoyon qiladi.

Qiyosiy tahlil shuni ham ko'rsatadiki, ikki mamlakatda ham vatanparvarlikning turli shakllari yoshlarni fuqarolik mas'uliyatiga, davlatga sodiqlikka va ijtimoiy barqarorlikka hozirlaydi, bu esa har ikki davlat uchun barqaror taraqqiyotning muhim omillaridan hisoblanadi.

Xulosa. Vatanparvarlik tarixiy ong va huquqiy madaniyat birligidan kelib chiqadi. U o'tmishga hurmat, bugungi kunning qonuniy va axloqiy talablarini bajarish hamda kelajakda Vatan ravnaqiga hissa qo'shishga intilishni o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchi va yoshlarning fuqarolik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi ustuvor vazifa sifatida qaralishi lozim. Bu jarayonning markaziy elementi — yosh avlodda ijodiy va xayrli faoliyatga hamda Vatani faol himoya qilishga tayyorlikni shakllantirishdir. Shu nuqtai nazardan, ta'lim muassasalari kelajak fuqarolarni tayyorlashda alohida mas'uliyatga egadir, ular shaxsiy rivojlanishni ijtimoiy faollik va vatanparvarlik pozitsiyasi bilan uyg'unlashtira olishlari lozim.

O'quv muassasalari nafaqat bilim manbai, balki yoshlar uchun qadriyatlar, vatanparvarlik tuyg'ulari va jamiyatga foydali faoliyatda ishtirok etish ko'nikmalari shakllanadigan muhit ham hisoblanadi. Vospitatelnyy jarayonning samarali tashkil etilishi talabalarda fuqarolik burchlariga mas'uliyat bilan yondashishni va faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishni ta'minlaydi, bu esa jamiyatning barqaror va progressiv rivojlanishining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi Renessans sharoitida vatanparvarlik g'oyasi O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy ma'naviy-huquqiy mezon sifatida namoyon bo'lmoqda. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligiga tayanilgan holda shakllantirilgan vatanparvarlik yosh avlodni fuqarolik mas'uliyatiga, ijtimoiy faollikka va davlat manfaatlariga sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Т.: Ўзбекистон, 2023.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. — Т.: Ўзбекистон, 2021.

3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттирамиз. 1–3-жилдлар. — Т.: Ўзбекистон, 2017–2019.
4. Мирзиёев Ш.М. Учинчи Ренессанс — Янги Ўзбекистоннинг маънавий пойдевори. Нутқ ва маърузалар тўплами. — Т.: Ўзбекистон, 2022.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ёшлар маънавиятини юксалтириш ва ватанпарварлик тарбиясини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»**ги Фармони. — Т., расмий нашр.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси тўғрисидаги Фармони. — Т., 2022.
7. “Миллат фидойилари”. Китоб-альбом / Республика Маънавият ва маърифат маркази, Ўзбекистон Республикаси Мудофаа вазирлиги, Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси. — Т.: Маънавият, 2024.
8. Абдуллаев А., Холматов Ж. Миллий ғоя ва маънавият асослари. — Т.: Ўзбекистон, 2019.
9. Қосимов Б. Маънавият ва миллий ўзлик. — Т.: Фан, 2016.
10. Huntington S. Who Are We? The Challenges to America’s National Identity. — New York: Simon & Schuster, 2004.
11. Almond G., Verba S. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. — Princeton: Princeton University Press, 1989.
12. Smith A.D. National Identity. — Reno: University of Nevada Press, 1991.
13. Kymlicka W. Multicultural Citizenship: A Liberal Theory of Minority Rights. — Oxford: Oxford University Press, 1995.
14. “Ғалаба боғи” ёдгорлик мажмуаси расмий веб-сайти. URL: <https://g'alababo'gi.uz>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/1 (6) – 2026

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).